

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No'monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamova	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
M.A.Matmusayeva	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
U.Xolova	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
A.M.To'rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni	418
Y.M.Namozova	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida.....	423



УО'К: 378.014.15

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

THE SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF PREPARING FUTURE PEDAGOGUES FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Meliqo'ziyev Abrorjon Akram o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, mustaqil ta'lif asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi, mustaqil ta'lif asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi o'r ganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari va ustuvor yo'nali shlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретико-методологические основы развития навыков ответственности в профессиональной деятельности будущих педагогов, система развития навыков ответственности при подготовке будущих педагогов к профессиональной деятельности на основе самостоятельного обучения, при подготовке будущих педагогов к профессиональной деятельности. Деятельность на основе самостоятельного обучения. Изучена эффективность развития навыков ответственности. Также были проанализированы педагогические основы и приоритеты развития навыков ответственности при подготовке будущих педагогов к профессиональной деятельности.

Abstract

In the article, the theoretical-methodological foundations of the development of accountability skills in the professional activity of future pedagogues, the system of development of accountability skills in preparing future pedagogues for professional activity based on independent education, in the preparation of future pedagogues for professional activity based on independent education. The effectiveness of developing accountability skills has been studied. Pedagogical bases and priorities for developing accountability skills in preparing future pedagogues for professional activities were also analyzed.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagog, texnologiya, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash, kreativ fikrlash, kasbiy faoliyat, mustaqil ta'lif, hisobdorlik ko'nikmalar.

Ключевые слова: будущий педагог, технология, компетентность, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактический, форма, метод, инструмент, оценка, творческое мышление, профессиональная деятельность, самостоятельное обучение, навыки ответственности.

Key words: future pedagogue, technology, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tool, assessment, creative thinking, professional activity, independent education, accountability skills.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va shu asosida ta'lif sifatini oshirish masalalari dolzarb ta'lifi muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonga xos yangicha ta'limda shaxsiy, insonparvarlik tamoyilini mustahkamlash pedagogik faoliyatga ta'lif jarayoni subyektlari – talabalar va o'qituvchilarning shaxsiy kamolotini takomillashtirish va amalga oshirish uchun sharoit muhayyo qilish bilan bog'liq yangi qirrasini beradi. Bunday sharoitda kasbga bo'lgan qiziqish o'qituvchining ajralmas motivatsion sohasining etakchi, tizimli tarkibiy qismiga aylanadi, shaxsiy o'zini-o'zi anglash sohasi sifatida pedagogik faoliyatning yangi ma'nosini amalga oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammolari bilan O.A.Abdulina, L.V.Andropova, Y.K.Babanskiy, V.P.Bespalko, S.Y.Batishev, YE.M.Borisova, I.V.Grishina, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, V.A.Kan-Kalik, Ch.Crook, K.Daphne, L.Galliani, E.C.Jansen, M.Nentwich, A.Pritchard, W.Richardson, R.X.Djurayev, A.R.Xodjabayev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, Sh.Qurbanov, Q.T.Olimov, E.O.Turdiqulov, M.B.O'razova, J.A.Hamidov, Z.K.Ismailova, X.F.Rashidov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, D.O.Ximmataliyev, O.E.To'raqulov, B.A.Nazarova, B.S.Nuridinov va boshqalarning ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan. Shuningdek, mustaqil ta'llimni tashkil etishda elektron resurslardan foydalinish usullari, masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llash muammolari ustida A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, U.SH.Begimqulov, R.H.Jo'rayev, F.I.Zakirova, R.D.Shodiye, N.I.Taylaqov, U.M.Mirsanova lar izlanishlar olib borishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Globallashuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda ta'llim shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda komillik va malakali, etuk mutaxassisiga oid jihatlarni shakllantirish muhim o'rinn tutadi. Bugungi shiddatli kechayotgan vaqtida talabalarni qisqa davrda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan jihatlarini puxta o'zlashtirishlariga zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Modernizatsiya sharoitida ta'llim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra, shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab etilmoqda. O'zida aynan shu imkoniyatlarni aks ettirgan ta'llim shaxsga yo'naltirilgan ta'llim deb nomlanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "kasb – inson mehnat faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar" sifatida tarifланади.

Pedagogika fanidan izohli lug'atda "kasb" tushunchasiga - "maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, uni jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik xuquqlarini ta'minlovchi insoniy faoliyatning turidir" - deb tarifланади.

Kasb tanlash va kasbiy faoliyatni shakllantirishga oid masalalar bir qancha pedagog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Jumladan: Professor J.Xasanboyev bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy faoliyatga e'tibor qaratadi va kasbiy faoliyatga quyidagicha ta'rif beradi: -Kasbiy funksiya - tegishli o'quv muassasalarining bitiruvchisiga tegishli bo'lib, shaxsning hayotda egallagan sohasida faoliyat ko'rsata olish, o'z kasbi doirasida bilimlarini o'zlashtirish va ularni og'ishmay amalda joriy eta olish faoliyatidir.

Profssor M.Ochilov o'zining "O'qituvchi odobi" asarida "Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli ahloqiy normalar va talablar ham bor bunday ahloq kasb (professional) ahloq deyiladi" degan fikrlarni beradi. Olim bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi.

Pedagog olim A.Xoliqov o'z tadqiqotida o'qituvchilik kasbi mazmun mohiyatini asoslab "Pedagogik kasb - bu komil inson sifatida harakatlantiruvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir" degan fikrni beradi.

Olim B.X.Raximov o'z tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy madaniy munosabatlarini tadqiq etgan. Uni fikricha: "Kasbiy madaniy munosabatlar shaxslararo amal qiladigan, ijobjiy munosabatlar yechimiga erishishda asosiy vosita, vazifasini bajaradi va shaxs faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi".

Shuningdek, tadqiqotchi G.Boymurodovning tadqiqotida "Pedagogik kasbga tayyorgarlik samarasini, ko'proq fanlarni chuqur o'zlashtirish va amaliyotda natijasini ko'ra bilishni chuqurlashtirish" deb ta'kidlaydi. Yuqorida olimlar tadqiqotlari yuzasidan ma'lum bo'ladiki, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash murakkab va ko'p qirrali jarayondir.

Pedagog olima N.M.Egamberdiyeva o'zining izlanishlarida pedagoglarni "kasbiy yetuklik"gi har bir mutaxassis uchun zarurligini ta'kidlaydi. Kasbiy yetuklik yaxlit bir tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o'zida uyg'unlashtiradi: Ularga "pedagogik madaniyat, ijodkorlik, pedagogik aqlidrok, pedagogik bilimga egalik, individual faoliyat, insonparvarlikka yo'naltirilganlik, ijtimoiy faoliyat" ni kiritish mumkin.

Professor N.Muslimov o'zining doktorlik dissertatsiyasida mutaxassislarning kasbiy faoliyatini tashkil etish borasidagi fikrlarni berib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Shaxsda kasbiy sifatlarning mavjudligi uning mutaxassis sifatida shakllanganlik ko'rsatkichi orqali ifodalanadi. Mutaxasning kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayoni ma'lum bosqichlarda ketma-ketlikda amalga oshiriladi".

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayorgarligini oshirish, ularning pedagogik faoliyatdagi muvafaqiyatlarini tadqiq etish masalalari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o'zini o'zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to'liq psixologik shakkllari E.F.Zeyer tomonidan o'rganilgan. U kasbiy tayyorgarlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi. Shuningdek, shaxsning yo'naltirilganligi, professional jihatdan muhim fazilatlari, professional jihatdan muhim psixofizologik xususiyatlarini ifodalaydi.

M.I.Lukyanova o'qituvchining psixologik-pedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o'quv jarayonida talabalar bilan samarali o'zaro munosabatlarga ega bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini tushunadi.

Pedagogik ensiklopediyada mustaqillik quyidagi ikki sifati bilan xarakterlanadigan shaxsning muhim jihat deb aks etilgan: birinchidan, shaxs egallagan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi; ikkinchidan, shaxsning ob'ekt (predmet, hodisa, jarayon)larga ta'sir natijalari, shart-sharoitlariga munosabati, shuningdek, boshqa shaxslar bilan aloqalari sifatida e'tirof etilgan. Pedagogikada kasbiy mustaqillik haqida aniq biror qat'iy fikrga kelinmagan degan g'oyani S.Y.Axmadaliev o'z tadqiqot ishida ko'rsatib o'tgan.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, S.Y.Batishev ta'lrim oluvchilar o'z kasbiy mustaqilligini shakllantirishda ishni qilish ketma-ketligini rejaga asosan ko'zlangan natijaga erishish yo'llari va usullarini izlasin, zamonaviy jihozlar bilan ishlashda o'z mehnatini ilmiy tashkil etsin, ishida uchraydigan qiyinchiliklarini o'zi hal etsin deydi.

G.I.Ajikin «Kasbiy mustaqillik – bu bo'lajak mutaxassisning o'z kasbi, ixtisosligi bo'yicha chuqur va har tomonlama puxta bilim, malaka, texnik tafakkurga ega bo'lgan holda o'zgaruvchan zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlariga erkin moslasha olish, dolzarb istiqbolli masalalarni oldindan bashorat qilish, qo'yilgan talab va shart-sharoitlarni to'g'ri baholay olish, ularning maqbul echimini topish qobiliyatidir».

Ko'pgina olimlar, jumladan, N.V.Kuzmina, K.K.Platonov, V.A.Slastyoninlar har qanday inson o'z faoliyatini erkin fikr ostida amalga oshirishi kerakligini ko'rsatib berishgan. Kasbda barqaror faoliyat yuritishga tayyorgarlik nazariyasi nuqtai nazaridan ko'zlanganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy barqarorlik faoliyatidagi mustaqilligi uning kasbiy-pedagogik faoliyatning ilk bosqichida boshlanadi.

XULOSA

Izlanish jarayonidagi kuzatish va tajribalarimiz shuni ko'rsatdiki, dastlabki holatlarda talabalarda pedagogik mahorat birmuncha past darajada rivojlangan. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy barqarorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan nazariya va amaliyotida kasbiy-pedagogik erkinlikning yagona tizimi ishlab chiqilmagan. Demak, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik erkinlikni shakllantirishga imkon beradigan metodikani ishlab chiqish zaruriyati borligi sezilib qoladi. Bunday metodika bo'lajak o'qituvchilarda har tomonlama mukammal bilim, pedagogik faoliyat usullarini bosqichlarga bo'lish, mustaqil ta'limda intiluvchan bo'lishi va kasbda barqaror, raqobatbardosh kadr bo'lishni ko'zlash psixologiyasini shakllantirish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Ахмадалиев Сидиқон Йигиталиевич. Бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларини касбий-педагогик фаолиятга мослашишининг илмий-методик асослари. Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Тошкент.: 2008. – С. 51-, 54-55.
- Ажикин Г.И. Самостоятельная работа учащихся профтехучилищ в процессе производственного обучения: Профпедагогика. – М.: Высшая школа, 1987. – С. 176.
- Батышев С.Я. Трудовая подготовка школьников. – М.: Педагогика, 1981. – С. 128.
- Боймуродов Г. Педагогик касбга тайёргарлик самараси. Узлуксиз таълим журнали. 2014. 3-сон. –Б. 42
- Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – Москва.: «Академия», 2013. –С. 38

ILMIY AXBOROT

6. Лукъянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика. – 2001. – №10. – С. 56-61
7. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132
8. Рахимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчидаги касбий маданий муносабатларини шакллантириш тизими. Тошкент.: Фан. 2005. –Б. 10.
9. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ҳам касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти. Афтореферат. Тошкент.: 2010.-Б.17.